

2014-YIL, 31-YANVARDA AVSTRALIYA IMMIGRATSİYASI HIBSIDA TURGAN BARCHA SHAXSLARGA BILDİRİSHNOMA

Bu sizning huquqlaringizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muhim bildirishnomadir.

Ushbu bildirishnoma quyidagi tillarda mavjud: www.immigrationdatabreach.com.au

Arabcha	Azarbajjoncha (Shimoliy dialekt)	Bengalcha	Birmacha	Kantoncha	Dari	Hazoracha
Hindi	Indonez	Kurd (Kurmanji)	Kurd (Sorani)	Mandarin	Pushtun	Fors
Panjobi	Sinhali	Sylheti	Tamilcha	Urdu	O'zbekcha	Vietnamcha

1 Ushbu bildirishnoma nima haqida?

Ma'lumotlar buzilishi haqida ma'lumot

- 1.1 Ushbu bildirishnoma (*notice*) Department of Immigration and Border Protection veb-sayti orqali sodir bo'lgan ma'lumotlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, u hozirda Department of Home Affairs (**departament**) deb nomlanadi.
- 1.2 2014-yil 10-fevralda ushbu veb-saytda taxminan 9000 kishining shaxsiy ma'lumotlarini o'z ichiga olgan elektron jadval chop etildi. Bu shaxslar immigratsiya yoki boshqa hibxonalarida bo'lgan. Elektron jadval veb-saytda e'lon qilinmasligi kerak edi. Bu tasodifiy hodisa edi. Ismingiz va manzilingiz kabi shaxsiy ma'lumotlarning tasodifiy e'lon qilinishi Ma'lumotlar buzilishi (*Data breach*) deb ataladi.
- 1.3 Shaxsiy ma'lumotlar Departament veb-saytidan 2014 yil 19 fevralda va Departament veb-saytining tarixiy versiyasidan 2014 yil 27 fevralda o'chirildi.

Shikoyat Office of the Australian Information Commissioner idorasiga yuborilgan

- 1.4 2015-yil 30-avgustda ma'lumotlar buzilishidan jabrlangan barcha shaxslar nomidan Office of the Australian Information Commissioner (OAIC) idorasiga shikoyat qilingan. Avstraliya axborot komissari shikoyatni tekshirdi.
- 1.5 2018-yil 24-yanvarda OAIC ma'lumotlar buzilishidan zarar ko'rgan barcha shaxslarga bildirishnoma (xuddi shunga o'xshagan) chiqardi (**birinchi bildirishnoma**). Birinchi bildirishnomada ma'lumotlar buzilishining ta'siri haqida ma'lumot berish so'rалган.
- 1.6 2021-yil 11-yanvarda Avstraliya Axborot Komissari qaror qabul qildi:
 - (1) Ma'lumotlar buzilishi natijasida Departament ma'lumotlar buzilishidan zarar ko'rgan shaxslarning shaxsiy hayotiga aralashdi; shunga ko'ra,
 - (2) Ma'lumotlar buzilishidan jabrlangan odamlar ma'lumotlarning buzilishi natijasida etkazilgan yo'qotish yoki zarar uchun kompensatsiya olish huquqiga ega.
- 1.7 Avstraliya Axborot Komissarining qarori ustidan Administrative Appeals Tribunal (**AAT**) ga shikoyat qilindi. 2023-yil 13-sentabreda AAT yangi jarayonni belgilab berdi, bunda ma'lumotlar buzilishidan jabrlangan shaxslarga tovon puli hisoblab chiqiladi. Bu jarayon kompensatsiyani baholash sxemasi (*Compensation Assessment Scheme*) deb ataladi.

Kompensatsiyani baholash sxemasi (Compensation Assessment Scheme)

- 1.8 AAT qaroriga muvofiq Norton Rose Fulbright Australia (**NRFA**) yuridik firmasi ma'lumotlar buzilishidan jabrlangan shaxslarga to'lanadigan tovonni mustaqil baholash uchun tayinlandi.
- 1.9 Ushbu bildirishnomaga kompensatsiyani baholash sxemasidagi birinchi qadamdir.

2 Nima qilishim kerak?

- 2.1 Agar siz ma'lumotlar buzilishi natijasida hech qanday yo'qotish yoki zarar ko'rмаган bo'lsangiz, siz kompensatsiya olish huquqiga ega bo'lmasiz. Ushbu bildirishnomaga javob berishingiz shart emas.
- 2.2 Agar siz o'zingizni ma'lumotlar buzilishi natijasida zarar ko'рган deb hisoblasangiz yoki bunga ishonchingiz komil bo'lmasa va kompensatsiyani baholash sxemasi bo'yicha kompensatsiya talab qilmoqchi bo'lsangiz, onlayn javob shaklini (**Response Form**) to'ldirish orqali ushbu bildirishnomaga javob berishingiz kerak, ushbu havolada mavjud: www.immigrationdatabreach.com.au Ma'lumotlar buzilishidan ko'rilgan zararlarga misollarni bilish uchun quyidagi 6-bandga qarang.
- 2.3 Agar siz o'zingizni ma'lumotlar buzilishi natijasida zarar ko'рган deb hisoblasangiz, lekin kompensatsiyani baholash sxemasida ishtirok etishni istamasangiz, ushbu Bildirishnomaga javoban voz kechishingiz kerak. Javob shakli sizga 'voz kechish' ('opt-out') variantini tanlash imkonini beradi. Kompensatsiyani baholash sxemasidan voz kechish oqibatlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi 3-bandga qarang.
- 2.4 Shaklda taqdim etgan ma'lumotlar NRFAga yuboriladi. Agar ishonchli internet tizimiga ularish imkonи bo'lmasa, javob shaklining qog'oz nusxasini to'ldirishingiz va o'z javoblariningizni quyidagi manzilga pochta orqali yuborishingiz mumkin: Compensation Assessment Scheme, Norton Rose Fulbright Australia, Level 6, 60 Martin Place, SYDNEY, NSW 2000. Iltimos, NRFAga auscas@nortonrosefulbright.com elektron pochtasi yoki (02) 9330 8006 telefon orqali murojaat qilib, javob shaklining qog'oz nusxasini so'rang.
- 2.5 Siz ushbu bildirishnomaga javobni **2024-yil 10-iyun kuni soat 16:00 ga** qadar yuborishingiz kerak (so'nggi muddat). Siz javob berish uchun vaqtни uzaytirishni so'rashingiz mumkin, biroq siz uzaytirishni olishingiz kafolatlanmaydi.
- 2.6 Muddatni uzaytirish bo'yicha barcha so'rovlar auscas@nortonrosefulbright.com elektron pochta manziliga yoki quyidagi manzilga ro'yxatdan o'tgan xat/pochta orqali yuborilishi kerak: Compensation Assessment Scheme, Norton Rose Fulbright Australia, Level 6, 60 Martin Place, SYDNEY, NSW 2000. Siz muddatni uzaytirishni 02 9330 8006 raqami orqali NRFA bilan bog'lanish orqali ham talab qilishingiz mumkin.
- 2.7 Agar siz birinchi bildirishnomaga javob bermagan bo'lsangiz va ushbu bildirishnomaga belgilangan muddatgacha javob bermasangiz (va muddatni uzaytirmsangiz), siz ma'lumotlar buzilishi natijasida ko'rilgan har qanday yo'qotish yoki zarar uchun tovon olmaysiz.

3 Kompensatsiyani baholash sxemasidan "voz kechish" nimani anglatadi?

- 3.1 Iltimos, shuni yodda tutingki, agar siz kompensatsiyani baholash sxemasi bo'yicha kompensatsiya olsangiz, ma'lumotlar buzilishi uchun kompensatsiyani boshqa usullar bilan (jumladan, sud muhokamasini boshlash orqali) so'rash bo'yicha barcha qonuniy huquqlaringiz **yo'qoladi**.
- 3.2 Buning sababi shundaki, kompensatsiyani baholash sxemasi sizning da'vengizni adolatli baholash va keyin siz va Departament o'tasidagi har qanday nizolarni tugatish uchun mo'ljallangan.

3.3 Agar siz o'zingizning qonuniy huquqlaringizni Kompensatsiyani baholash sxemasidan tashqarida qo'llashni xohlasangiz, ushbu bildirishnomaga javob berish va Javob shaklidagi "voz kechish" variantini tanlash orqali Kompensatsiyani baholash sxemasidan voz kechishingiz kerak. Voz kechishga qaror qilishdan oldin, biz sizni ushbu qaroringiz haqida, jumladan, boshqa turdag'i da'volarning xaratatlari va qiyinchiliklari, masalan ma'lumotlar buzilishidan keyin Kompensatsiyani baholash sxemasidan tashqarida ochilishi bo'lgan da'vo uchun juda ko'p vaqt o'tganmi yoki yo'qligi haqida huquqiy maslahat olishingizni tavsiya qilamiz.

4 Agar Birinchi Bildirishnomaga javoban allaqachon ma'lumot bergen bo'lsam nima bo'ladi?

- 4.1 Agar siz birinchi bildirishnomaga javoban ma'lumot bergen bo'lsangiz, NRFA sizga to'lana digan tovonni baholaganda ushbu ma'lumot ko'rib chiqiladi. Xuddi shu ma'lumotni yana taqdim etishingiz shart emas.
- 4.2 Agar siz ushbu bildirishnomaga javoban yangilangan yoki qo'shimcha ma'lumot bermoqchi bo'lsangiz, uni oxirgi muddatgacha taqdim etishingiz muhim.

5 Birinchi xabarga javob bermagan bo'lsamchi?

- 5.1 Endi sizda NRFAga muhim ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati mavjud.
- 5.2 Biroq, birinchi bildirishnomaga nima uchun javob bermaganingizni tushuntirishingiz kerak. Keyin NRFA sizning kompensatsiyani baholash sxemasida qatnashish huquqiga ega ekanligingizni baholaydi.
- 5.3 Birinchi bildirishnomaga nima uchun javob bermaganligingizga taalluqli bo'lisi mumkin bo'lgan ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:
 - (1) Birinchi bildirishnomani olmaganligingiz haqidagi dalil;
 - (2) Sizning javobingiz OAIC tomonidan to'g'ri qabul qilib olinmaganligi haqidagi dalil;
 - (3) Kompensatsiya olish huquqiga ega emasligingiz haqida noto'g'ri fikrda ekanligingizni tushuntiruvchi yozma bayonot;
 - (4) Birinchi xabarni tushunmaganligingiz yoki qanday javob berishni bilmaligingizni tushuntiruvchi yozma bayonot; yoki
 - (5) Boshqa holatlar (jumladan, tibbiy kasallik, moliyaviy qiyinchiliklar yoki oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish majburiyatları) Birinchi bildirishnomaga javob berishga to'sqinlik qilganligini tushuntiruvchi yozma bayonot.

6 Qanday yo'qotish yoki zarar uchun kompensatsiya olishim mumkin?

- 6.1 Kompensatsiyani baholash sxemasi sizga quyidagilar uchun kompensatsiya berishi mumkin:
 - (1) Iqtisodiy yo'qotish yoki zarar (**Economic Loss**); va
 - (2) Iqtisodiy bo'limgan yo'qotish yoki zarar (**Non-Economic Loss**).
- 6.2 Kompensatsiyani baholash sxemasi sizga faqat ma'lumotlarning buzilishi natijasida kelib chiqqan iqtisodiy yo'qotish va iqtisodiy bo'limgan zararni qoplashi mumkin. Kompensatsiyani baholash sxemasi ma'lumotlar buzilishi natijasida yuzaga kelmagan boshqa yo'qotish yoki zararni qoplay olmaydi.

Iqtisodiy yo'qotish

- 6.3 Iqtisodiy yo'qotish - bu siz ko'rgan moliyaviy yo'qotishlarni, masalan, siz sarflagan pul (cho'ntakdan tashqari) yoki siz olmagan daromad (daromadni yo'qotish) ma'lumotlarning buzilishi natijasida yuzaga kelgan zararni anglatadi. Bunga quyidagilar kiradi:
- (1) Ma'lumotlar buzilishi natijasida yuzaga kelgan har qanday tibbiy xarajatlar. Bu quyidagilar bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga olishi mumkin:
 - (a) shifokorlar bilan maslahatlashuvlar;
 - (b) dori-darmonlar va davolash; va
 - (c) tibbiy xulosalar;
 - (2) Ma'lumotlarning buzilishi tufayli ishlay olmaslik natijasida har qanday daromad yo'qolishi; va
 - (3) Ma'lumotlar buzilishi natijasida yuzaga kelgan har qanday boshqa xarajatlar, jumladan:
 - (a) OAICga oldingi shikoyatlar bilan bog'liq xarajatlar yoki ma'lumotlar buzilishi natijasida Birinchi bildirishnomaga javob berish; va
 - (b) ma'lumotlar buzilishi natijasida sizning shaxsingizni himoya qilish xarajatlari.

Iqtisodiy bo'limgan zarar

- 6.4 Iqtisodiy bo'limgan yo'qotish - moliyaviy bo'limgan yo'qotish (ya'ni, hech qanday iqtisodiy zararni o'z ichiga olmaydi). Iqtisodiy bo'limgan zarar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:
- (1) tashvish, stress, qo'rquv, g'azab, og'riq va azob-uqubatlar, kamsitish yoki sharmandalik hissi;
 - (2) Uyquni yo'qotish yoki bosh og'rig'i kabi ma'lumotlarning buzilishi natijasida jismoniy va psixologik alomatlar; va
 - (3) Ma'lumotlar buzilishi natijasida yuzaga kelgan yoki kuchaygan tibbiy ahvol, jumladan, shifokor tomonidan tashxis qo'yilgan tashvish yoki depressiya.

7 NRFAg a qanday ma'lumotlarni taqdim etishim kerak?

- 7.1 Javob shakli sizdan maxsus ma'lumotlarni taqdim etishingizni so'raydi. Shuningdek, sizda kompensatsiya talabini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha dalillar taqdim etish imkoniyati mavjud.
- 7.2 Iqtisodiy yo'qotishlar va iqtisodiy bo'limgan zararlar uchun kompensatsiya olish huquqini baholashda NRFA turli dalillarni ko'rib chiqadi.
- 7.3 Siz taqdim etishingiz mumkin bo'lgan dalil turlariga misollar quyidagilardir:

Iqtisodiy zararni qo'llab-quvvatlovchi dalillar

- (1) Ma'lumotlar buzilishi natijasida siz qilgan cho'ntak xarajatlari to'g'risidagi kvitansiyalar va boshqa yozuvlar. Masalan, bunga quyidagilar kiradi:
 - (a) ma'lumotlar buzilishi natijasida shifokorlar bilan uchrashuvlar;
 - (b) ma'lumotlarning buzilishi natijasida shifokorlar tomonidan tayyorlangan hisobotlar;

- (c) ma'lumotlar buzilishi yuzasidan OAICga ilgari qilingan har qanday shikoyat yuzasidan yoki ma'lumotlar buzilishi natijasida birinchi bildirishnomaga javob bergeningizda (masalan, yurist) olgan to'lovlard; va
 - (d) ma'lumotlar buzilishi natijasida sizning shaxsingizni himoya qilish uchun boshqa xarajatlar.
- (2) Ma'lumotlar buzilishi tufayli ishlamaslik natijasida daromad yo'qotilganligini tasdiqlovchi maosh varaqalari, ish beruvchingizdan xatlar, tibbiy ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlar; va
- (3) Siz, oila a'zolaringiz yoki sizga yaqin bo'lgan boshqa shaxslar tomonidan imzolangan qonuniy deklaratsiyalar yoki ma'lumotlar buzilishi natijasida siz ko'rgan har qanday iqtisodiy yo'qotishlarni tavsiflovchi bayonotlar.

Iqtisodiy bo'limgan zararni qo'llab-quvvatlovchi dalillar

- (1) Siz, oila a'zolaringiz yoki sizga yaqin bo'lgan boshqa shaxslar tomonidan imzolangan qonuniy deklaratsiyalar yoki ma'lumotlar buzilishining sizga ta'sirini tavsiflovchi bayonotlar, shu jumladan, bu sizning jismoniy yoki ruhiy holatingizga qanday ta'sir qilgan bo'lishi mumkinligi; va
- (2) Quyidagilarni tavsiflovchi shifokorning hisobotlari, yozuvlari va sertifikatlari:
 - (a) ma'lumotlar buzilishi natijasida yuzaga kelgan yoki kuchaygan har qanday tibbiy ahvol;
 - (b) ma'lumotlar buzilishi natijasida shifokoringiz bilan bo'lgan har qanday maslahatlashuvlar; va/yoki
 - (c) ma'lumotlarning buzilishi natijasida olingan har qanday davolanish.

8 Ushbu bildirishnomaga telefon orqali javob bera olamanmi?

- 8.1 Agar siz onlayn shakl orqali javob bersangiz (www.immigrationdatabreach.com.au) da mavjud javobingiz yanada samaraliroq qayta ishlanishiga qaramay, siz ushbu bildirishnomaga telefon orqali javob berish huquqiga egasiz.
- 8.2 NRFA bilan (02) 9330 8006 raqami orqali bog'laning.

9 Malakali tarjimonlar

- 9.1 Ushbu bildirishnomaga bir nechta tillarda mavjud. Iltimos, ushbu hujjatning boshidagi mavjud havolaga qarang.
- 9.2 Shuningdek, siz ushbu bildirishnomaga o'zingiz tanlagan tilda javob berish huquqiga egasiz. NRFAga auscas@nortonrosefulbright.com elektron pochta orqali yoki (02) 9330 8006 raqami orqali malakali tarjimon yordamini so'rash uchun murojaat qiling.

10 Bildirishnomaga javob berishim uchun moliyaviy yordam olishim mumkinmi?

- 10.1 Ha. Bildirishnomaga javobingizni tayyorlashda sizga yuridik amaliyotchi tomonidan ko'rsatilgan har qanday yordam narxini qoplash uchun 500 dollargacha talab qilish huquqiga egasiz. Ushbu moliyaviy yordamni Javob shakli orqali talab qilish mumkin.

- 10.2 Shuningdek, kompensatsiyani baholash sxemasida ishtirok etish vaqtida (shu jumladan, bildirishnomaga va javob shaklining tarjima qilingan nusxalarini olish) Sxema ma'muri tomonidan sizga ko'rsatilgan tarjima yoki tarjimon xizmatlari uchun to'lashingiz shart emas.

11 Savollar va yordam

- 11.1 Agar sizga ushbu bildirishnomaga javob berishda yordam kerak bo'lsa yoki savollaringiz bo'lsa, NRFA bilan (02) 9330 8006 yoki auscas@nortonrosefulbright.com orqali bog'laning.

12 Shaxsingiz Maxfiyligi

- 12.1 Sizning shaxsingiz maxfiyligi NRFA uchun muhim. NRFA sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni 1988 yildagi *Privacy Act 1988* (Cth), ya'ni Maxfiylik to'g'risidagi qonunga shu jumladan Avstraliya Maxfiylik tamoyillariga muvofiq qayta ishlaydi.
- 12.2 Administrative Appeals Tribunal tomonidan chiqarilgan buyruqlarga muvofiq, NRFA Department of Finance tomonidan kompensatsiyani baholash sxemasi bo'yicha beriladigan kompensatsiyani mustaqil baholash uchun tayinlangan. NRFA ma'lumotlaringizni shu maqsadda to'playdi, foydalanadi va oshkor qiladi. NRFA sizdan shaxsiy ma'lumotlarni to'plashdan tashqari, OAIC va Departamentdan siz haqingizda shaxsiy ma'lumotlarni ham to'plashi mumkin.
- 12.3 Agar NRFA sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni to'play olmasa, NRFA sizning kompensatsiya uchun da'vengizni baholay olmaydi.
- 12.4 NRFA sizning da'vengizni baholayotganda, NRFA sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni Department of Home Affairs va Department of Finance bilan bo'lishishi kerak. Bu departamentlarga sizning da'volaringizni va bizning baholashimizni tushunish va javob berishga yordam beradi. NRFA, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlaringizni tibbiy va yuridik amaliyotchilar kabi mustaqil maslahatchilar bilan bo'lishishi mumkin.
- 12.5 Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni shaxsiy ma'lumotlarni saqlash uchun axborot texnologiyalarini boshqarishda bizga yordam beradigan xodimlarimiz va pudratchilarimiz bilan baham ko'rishimiz mumkin. Ushbu xodimlar va kontaktorlarning ba'zilari Buyuk Britaniya kabi Avstraliyadan tashqaridagi davlatlarda joylashgan bo'lishi mumkin.
- 12.6 NRFA Maxfiylik siyosati siz haqingizda mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar bazasiga qanday kirishingiz va bu ma'lumotlarni qanday tuzatishingiz mumkinligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Maxfiylik siyosati shuningdek, Avstraliya Maxfiylik tamoyilliari buzilganligi haqida qanday shikoyat qilishingiz mumkinligi va NRFA bunday shikoyatni qanday ko'rib chiqishi haqida ma'lumotni o'z ichiga oladi. Siz NRFAning Maxfiylik siyosatiga uning veb-saytida ushbu manzilda kirishingiz mumkin: <https://www.nortonrosefulbright.com/en-au/global-statements/privacy-notice>.
- 12.7 Department of Home Affairs va Department of Finance ning maxfiylik siyosati bir xil turdag'i ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:
- Department of Home Affairs: <https://www.homeaffairs.gov.au/access-and-accountability/our-commitments/privacy>
 - Department of Finance: <https://www.finance.gov.au/about-us/privacy-policy-summary>
- 12.8 Agar sizda biz to'playdigan shaxsiy ma'lumotlar va biz sizning ma'lumotlaringiz bilan qanday ishlashimiz, jumladan, siz yuborgan shaxsiy ma'lumotlarga tuzatishlar kiritish haqida savollaringiz bo'lsa, Norton Rose Fulbright Australia bilan auscas@nortonrosefulbright.com electron pochta yoki (02) 9330 8006 raqami orqali bog'laning.